

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил махсус сон



Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Қодирхонов

Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р.Жалалов

ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.д. Н.Абдурахмонов.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қишлоқ хўжалиги фанлари: – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

Фалсафа фанлари: –ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н, доц.М. Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятгов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, п.ф.д., проф Ў.Асқарова, п.ф.н., доц. М.Нишонов, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник муҳаррир: [Н.Юсупов](#)

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** ilmiy@inbox.uz

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатида киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 27.10.2021 йилдаги кенгайтирилган йиғилишида муҳокама қилиниб,

илмий тўплам сифатида чоп этишга рухсат этилган (**Баённома № 13**). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.



nutqi ham, o'zini dunyoqarashi ham ancha yaxshi shakllanishiga yordam beradi. Hafta so'ngida ko'p kitob mutolaa qilgan o'quvchilarni taqdirlash, ularni qiziqishlarini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat va yengilmas kuch" Toshkent "Ma'naviyat" 2008 7-bet.
2. Pedagogika nazariyasi" X. Ibragimova, Sh. Abdullayeva Toshkent 2008 156-bet.
3. "Kutubxona va yosh kitobxon" E. Yo'ldoshev Toshkent "O'zbekiston" 2003
4. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya" R. Mavlyanova, N. Rahmankulova 22-bet.

KITOBXONLIKKA QIZIQISHNI TARBIYALASH ORQALI O'QUVCHILARDA SHAXSLARARO MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Zaylobiddinova M. A Namangan davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi BT-EU-21 guruh talabasi

Nuriddinova D.I NamDU "Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda bolaning kitobga bo'lgan qiziqishlaridan kelib chiqib kitobxonlik madaniyatini oshirish uchun bir necha metodlar keltirilgan. Ularni turli xildagi kitoblarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish asosiy maqsad qilib olingan. Kitobxonlik madaniyatini oshirish, bolaning ma'naviyatini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish uchun asosiy tayanch vositasi hisoblanadi.

Tayanch so'zlar: pedagogika, kitobxonlik, savodxonlik, intiluvchanlik, dunyoqarash, o'qituvchi, o'quvchi, muloqot.

ПОВЫШЕНИЕ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Зайлобиддинова М.

А НамГУ учится на специальности «Начальное образование».

Нуриддинова Д. И НамГУ в начальном образовании. Преподавание социальных наук преподаватель кафедры методологии

Аннотация: В этой статье представлены несколько методов улучшения чтения в начальной школе на основе интереса ребенка к книгам. Основная цель заключалась в том, чтобы повысить их интерес к разным книгам. Это ключевой инструмент повышения культуры чтения, обогащения духовности ребенка, расширения его мировоззрения.

Ключевые слова: педагогика, чтение, грамотность, стремление, мировоззрение, учитель, ученик, общение.

INCREASE READING AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Zaylobiddinova M. A

NamSU is a student of "Primary Education"

Nuriddinova D.I NamSU In primary education teaching social sciences teacher of the department of methodology



***Annotation:** This article presents several methods to increase reading in primary education based on a child's interest in books. The main goal was to increase their interest in different books. Enhancing the culture of reading is a key tool for broadening a child's worldview by enriching their spirituality.*

***Keywords:** pedagogy, reading, literacy, aspiration, worldview, teacher, student, efficiency.*

Kitob o'qigan yosh avlodda vatanga muhabbat ruhi kuchli bo'ladi. Ularga ajdodlarimizning yozgan kitoblari bilan tanishtirish milliy an'anamizni saqlashga xizmat qiladi. Maktablarga 71 mingdan ortiq badiiy adabiyotlardan iborat kitoblar karvoni jo'natildi. 2020-yil 24-sentabrda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda 14 ta hududdagi barcha umumta'lim maktablari uchun 70 nomdagi jahon va o'zbek adabiyotining durdona asarlaridan iborat jami 71 500 dona badiiy adabiyotlar karvoni viloyatlarga jo'natildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, boshlang'ich sinflarda shaxslararo kitobxonlikni yanada targ'ib qilish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish, milliy va jahon adabiyotini tizimli targ'ib qilish orqali vatanparvarlik, ezgulik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlariga nisbatan mehr va muhabbat uyg'otishdan iborat. Ushbu kitoblar ta'lim muassasalariga yetkazilgandan so'ng, «Kitob taqdimoti», «Kitob haftaligi», «Men sevgan adib» kabi tadbirlar tashkil etilishi rejalashtirilgan. Mazkur kitoblar kelgusida o'quvchi va o'qituvchilarini badiiy adabiyot mutolaasiga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish bilan bir qatorda, o'zaro hurmat tuyg'ularini shakllantirishga, ilmi va zukko yoshlarni tarbiyalashga va albatta shaxslararo munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Birinchi prezidentimiz ham milliy g'oyamizga alohida e'tibor berib, asarlarida unga alohida e'tibor bergan. "Har qanday bosqin va istilolarga qarmasdan, har qanday og'ir va murakkab sharoitda ham ota-bobolarimiz o'zligini yo'qotmasdan, ma'naviy hayot mezonlari, odob-axloq qoidalariga amal qilib, komillik sari intilib yashagani barchamizga ibrat bo'lib, kuch-quvvat bag'ishlab kelmoqda". Avvalo, ajdodlarimizning ibratli hayotidan o'rnak olish, ularga munosib voris bo'lish, ularning orzularini ro'yobga chiqarish uchun intilish zarurligi kishilar e'tiborini tortadi. [1.7-bet] Kitob bilan ommaviy ish olib borilganda, bolalarni vatanimiz va boshqa mamlakatlarda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy voqealar va hodisalar, tabiatda yuzaga kelayotgan o'zgarishlar bilan tanishtiriladi. Bu ularning maktabda olgan bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi.

Kitob-umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo'luvchi sodiq do'st. Insonning ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo'q. Shu bois azal-azaldan butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilm-u odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan. Darhaqiqat, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuchdir. U insonning tarixiy xotirasi, ma'naviy-ma'rifiy olami, ilmiy zaminini mustahkamlovchi kelajagini yorqin ko'rsatib borishga qodir mash'ala hisoblanadi. Insonning ma'naviyati uning odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Ma'naviyat esa aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Ma'naviyat-inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar.) [2.156-b]

Tarbiyaning barcha mezon va unsurlari, avvalo, oilada shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ham oilaning o'rnini nihoyatda kattadir. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan iboraga tayansak, bu mohiyat yanada dolzarb masalaga ko'tariladi.

Darhaqiqat, shaxs takomilida oilaviy muhit, oilaviy qadriyatlar asosiy vosita hisoblanadi. Ota-onaning ma'naviy darajasi, axloqiy qarashlari bevosita farzandda aks etadi. Shunday ekan, kitobxonlik, badiiy adabiyotga muhabbat ham inson ma'naviy tafakkurini, tarbiya ahvolini



namoyon qiluvchi muhim xususiyatlar sanaladi. Kitob dunyosiga oshufta, adabiy olamga hamnafas, badiiyatdan bahramand qalb egasi o'zidagi bu tuyg'u va fazilatlarni atrofdagilarga, ayniqsa, oilasiga yaqin insonlarga ham singdirishi mumkin. Kitobxon ota-onalarning farzandlari ham kitobga o'zgacha mehr ko'rsatadi. Bolani avvalo kichik yoshligidan tarbiyalash lozim. Chunki yosh-murg'ak qalbi oppoq qog'ozdek. Bu oq qog'ozga ota-onaning, tashqi muhitning, o'qituvchining qalami bilan yoziladi. Albatta, yozilganda ham bolaning tarbiyasiga, ta'limiga chuqur e'tibor berilgan holda yozilishi kerak. O'qish madaniyatini tarbiyalash sohasida ishlarni birgalikda va hamkorlikda olib borish lozim. Bu borada, ayniqsa oilaning ro'li nihoyatda katta. Chunki oila bola tarbiyasida boshlang'ich va asosiy ro'l o'ynaydi. Biroq, oilalarda tarbiyaning butun bir tizimi yaratilganki, uni har bir oila o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llasa yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Oilada bola tarbiyasiga oid juda ko'plab kitoblar, maqolalar yozilgan. Biz asosiy e'tiborni tarbiyaning g'oyat samarali vositasi-kitob o'qishni uyishtirish, kitob orqali bolani tarbiyalash, unda ezgulikni shakllantirish haqidagi ba'zi fikrlarga qaratmoqchimiz. Bola kitob o'qish orqali dunyoni bilib oladi, uning dunyo qarashi o'sadi, xarakteri shakllanadi, hayotni o'rganadi, bilimi oshadi. Biroq ko'pgina oilalar kitobning bola tarbiyasidagi ahamiyatini tushunmaydilar, tushunsalar ham bunga yetarlicha e'tibor bermaydilar, bolalarga kerakli shart- sharoitlar yarata olmaydilar. [3]

Bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasida har doimgi davrdan bir necha barobar ko'p miqdorda samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Badiiy asar tanlashda bolaning yosh va fiziologik xususiyatlari, ruhiy ma'naviy dunyosi, qiziqish va intilishlari inobatga olinmas ekan, o'z farzandiga kitobga nisbatan ijobiy yutuqlarga erisha olmaydi. Shularni e'tiborga olgan holda, oilaviy kitobxonlik madaniyatiga ega bo'lish uchun quyidagi tavsiyalarni e'tiborga olish kerak:

- Kitob mutolaasida farzandlarga doim o'rnak bo'lish;
- Kitob tanlash madaniyatiga ega bo'lish;
- Muayyan vaqtlarda oila davrasida navbatma –navbat kitob o'qib berishni yo'lga qo'yish;
- Xotirani kuchaytirish ahamiyatiga ega bo'lgani boisdan farzandlarining she'r yodlashiga alohida ahamiyat qaratish;
- Ko'proq she'r yod olishga erishish;
- Har bir farzandning yosh va xarakter xususiyatini ruhiy ma'naviy dunyosini nazarda tutgan holda kitob taqdim qilish;
- Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarga ko'proq rang-barang suratlarga yo'g'irilgan, katta-katta harflarda yozilgan, uning beg'ubor xayoloti sarhadlarini aks ettira oladigan asarlarni tanlash;
- O'rta yoshli kitobxon farzand uchun esa unga tengdosh qahramonlar taqdiri aks etgan, hayotiy, hayoliy-fantastik voqealar tasvirlangan, ko'ngil kechinmalari jonlantirilgan asarlarni tavsiya qilish;
- Katta yoshdagi mustaqil, oila qurgan farzandlari bilan ham tez-tez kitob mutolaasi xususida suhbat o'tkazib, zaruriy tavsiyalar berib turish (bu oilaviy kitobxonlik an'anasini muqaddas qadriyat sifatida davom ettirishga zamin yaratadi);
- Har bir kitob mutolaasi uchun har kunlik va haftalik miqdorlarni belgilash va muntazam nazorat qilib borish;
- O'qilgan asar mazmun mohiyati, qahramonlar xarakter-xususiyati, ijodkor yondashuvi, olingan taassurotlar bo'yicha oilada davra suhbatini tashkil qilib borish;
- O'z vaqtida va talab darajasida mutolaa qilgan kitobxon farzandni rag'batlantirish;



- Badiiy adabiyotga yetarlicha qiziqish bildirmayotgan, topshiriqlarni o'z vaqtida bajara olmayotgan farzand bilan alohida shug'ullanish, unda kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga erishish;
- Jamiyatning moddiy-ma'naviy taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'shadigan yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli oila sifatida qadr topish;

Yaqin atrofdagi tanish oilalarimiz hayotiga nazar tashlasak, qaysi oilada kitobxonlik madaniyati qay darajada shakllanganligiga amin bo'lamiz. Kimdir dunyoviy hodisalar ummonida suzib yurishni xush ko'rsa, kimlardir badiiy adabiyot osmonida sayr etishga ishtiyoqmandir. Kimdir bir oyda bir kitob o'qishga vaqt ajratsa, yana kimlardir bir haftada bir kitob mutolaa qilishga vaqt ajratadi. Xullas, kitob bilan hamma o'z olamida, o'z xohish va imkoniyatlari chegarasida turli holatda yuzlashadi. O'zi tug'ilib o'sgan oilaviy muhitida o'z vaqtida kitobga muhabbat, adabiyotga e'tibor bilan ulg'aygan, kitobxonlikni oilaviy muhim qadriyatga aylantirgan insonlarning farzandlari ham kitob atalmish buyuk va bebaho xazinadan bahramand bo'lib, ma'naviy barkamollikka erishishini istaydi. Buning uchun ham ota, ham ona o'z vaqt va imkoniyatiga qarab, sermazmun, badiiy estetik ahamiyati yuqori bo'lgan turli adabiy janrdagi va o'zbek adabiyoti durdonalarini, diniy-ma'rifiy sarchashmalarni tanlab xarid qilishadi. Bu asrlar farzandlarning yosh va qiziqishlari, aqliy salohiyati, o'zlashtirish qobiliyatini inobatga olish zarur. Eng muhimi, kitob taqdim qilinganda, uning hajmini ham e'tiborga olish lozim. Oila ota-ona bu borada talabchan bo'lmog'i lozim. Har kuni o'qitilishi lozim bo'lgan sahifa miqdorini taqsimlab berishi, she'riy asarlarga alohida qiziqish bildirishi, har bir farzandiga she'rlar yodlab borishini tayinlashi, bir pedagog kabi topshirilgan vazifa ijrosini qabul qilib olishi, ya'ni, farzandlar yod olgan she'rlarini aytib berishlari, o'qiyotgan asarlaridan belgilangan sahifalar va uning mazmunini gapirishadi; qahramonlar faoliyati, xarakter-xususiyatiga munosabat bildirishadi. Kitobni yakunlaganlar esa asardan olgan taassurotlarini ham o'rtoqlashadi. Bu jarayonda farzandlarning o'zlashtirish ko'rsatkichi, topshiriqqa mas'uliyat bilan yondashish darajasi, kitobxonlik madaniyati ham oydinlashib, o'ziga xos yondashuvlarga turtki bo'ladi. Yana bir muhim jihati, farzandlar o'ziga tegishli asarni o'qib bo'lgach, kitoblar almashtiriladi, biri-ikkinchisining kitobini ham o'qib-o'zlashtirib boraveradi. Shuningdek, oila davrasida ham kitob o'qib berish yo'lga qo'yilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Natijada, farzandlarning umumiy tarbiyasida ham ijobiy mohiyat aks etadi. Bundan ko'rinadiki, yosh avlodning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishda oila eng muhim va mustahkam tayanch bo'lib qolaveradi. Kitobxonlikni oshirish maqsadida bolalar o'rtasida turli xildagi tadbirlar, tanlovlar, sayohatlar o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sayohat deganda bolalarni sinf o'qituvchilari boshchiligida markaz kutubxonalariga sayohat tashkillashtirish lozim. Hozirgi kunda prezidentimiz tashabbusi bilan yurtimizda mingdan ziyod kutubxonalar barpo qilinmoqda. Ulardagi qulayliklar hamda kitoblar olami bilan bolalarni yaqindan tanishtirish kerak. Kutubxonadagi qulayliklardan biri shundaki, yoshlarga qarab kitoblar o'qish uchun joy ham, kitoblar joylashish o'rni ham yoshga mos tarzda joylashtirilgan. Sayohat jarayonida bolada kitobga hamda kutubxonaga nisbatan kengroq amaliy tushunchaga ega bo'ladi. Ular sayohat mobaynida ham ma'naviy, ham madaniy hordiq oladi. Bolalarni barcha qiziqarli kitoblar bilan tanishtirgandan so'ng, ularni o'ziga yoqqan kitobini olishi hamda shu kitobdagi varoqlarni hafta oxirida sinf rahbar boshchiligida tahlil qilish lozim. Bunda bolalar o'qigan kitobidagi qahramonlar, ularning ijobiy, salbiy xarakterlarini sinfdoshlari bilan o'rtoqlashadi. Bu jarayonda sinfdoshining o'qigan



kitobiga qiziqish paydo bo'ladi. Bolalar kitob haqida suhbat o'tkazganlarida, adabiy ertaliklarda ishtirok etganlarida kitobga katta etibor bilan qaraydilar.

Ovozli o'qish va so'zlab berish bolani kitobga jalb qilishning tabiiy usuli bo'lib, undan oilada ham keng foydalaniladi. Mashhur pedagog A.S. Makarenko oilada ovozli o'qish muhim ahamiyatga ega ekanini takidlab: "Imkoni boricha o'qish har kuni va doimiy ravishda olib borilishi lozim. Avvalo ota-onalar o'qib berishsa, so'ngra bu ishni bolalarning o'ziga topshirishsa maqsadga muvofiq bo'ladi", degan edi. Ovozli o'qish va so'zlab berish boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega. Ular o'qish texnikasini yaxshi egallamagan bo'ladilar. Shuning uchun bu yoshdagi bolalar birinchi-ikkinchi yilda o'qishga ancha qiynalishlari sababli o'qishdan ko'ra eshitishni yaxshi ko'radilar. Bundan tashqari, bolalar o'qishgagina emas, diqqat bilan eshitishga ham, eshitganlarini o'zlashtirishga va aytib berishga ham o'rganishlari kerak. Bolalarning o'qish texnikasini asta-sekin o'rganishlari ularning o'qish qobiliyatlari va diqqatlarini o'stiradi, ular o'z kuchlari bilan o'qigan kitoblarini mazmunini tushuna boshlaydilar. Bolalarga qiyinroq matnlarni o'qib berish har doim ham foyda beravermaydi. Chunki, ovozning intonatsiyasi, kitobning mazmuni kichik kitobxonga yoqmasligi yoki uni tushunmay qolishi mumkin. Bunday paytda qayta o'qib berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ovozli o'qiyotganda intonatsiya va pauza bilan o'qish matni tushunishni oslashtiradi. Ayniqsa matni kattalar so'zlab bersalar, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Ovozli o'qib, so'ngra so'zlab berilsa, kitobxon o'qigan kitob mazmunini yaxshi tushunadi. Bolalar kitobni o'zlari mustaqil o'qiganlarida uning ayrim joylariga, ayrim so'zlariga tushunmaydilar yoki ayrim joylariga e'tibor bermasligi mumkin. Masalan, 3-sinf o'quvchisi o'zbek xalq ertaklarini o'qib kelganda kutubxonachi "Yetti yashar bola" ertagi yuzasidan quyidagicha savol berishi mumkin. "Bolaning otasini kim o'ldirdi?" "Bolaning otasini podsho o'ldirdi, u avvalo yomon edi, keyin yaxshi bo'lib qoldi. Bolani o'zining o'miga podsho qildi", deb javob beradi bola. O'quvchi cholni boshqa podsho o'ldirganini va o'g'liga boshqa podsho o'z o'mini berganini tushunishi kerak. Bundan tashqari kutubxonachi ertakdagi "qora changal", "taqdir", "tush tabiri" kabi so'zlarni ham tushuntirib berishi lozim. Ovozli o'qish sinf o'quvchilari uchun ham muhimdir. Bu ularga kitobni to'la tushunishlarida yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, asosan, 1-sinf o'quvchilari she'rlarni juda ham qiziqib eshitishadi. Shuning uchun ovozli va ifodali o'qish repertuarida poeziyaga ham alohida e'tibor berish kerak.

Xulosa qilib aytganda, ota-ona va o'qituvchi hamkorligida bolada kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ancha qulayroq bo'ladi. O'qituvchi tomonidan turli xildagi shaxslararo tadbirlar, guruhlariga ajratgan holda savol-javoblar o'tkazish ularning kitobga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi. Haftalik musobaqalar o'tkazish ham yaxshi foyda beradi. Ya'ni, "Siz qanday ertaklarni bilasiz?", Hafta so'ngida qanday she'r yod olganini so'rash, sinfdoshlari davrasida ifodali aytib berishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quvchining og'zaki nutqi ham, o'zini dunyoqarashi ham ancha yaxshi shakllanishiga yordam beradi. Hafta so'ngida ko'p kitob mutolaa qilgan o'quvchilarni taqdirlash, ularni qiziqishlarini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat va yengilmas kuch" Toshkent "Ma'naviyat" 2008 7-bet.
- 2.Pedagogika nazariyasi" X.Ibragimova, Sh. Abdullayeva Toshkent 2008 156-bet.
- 3."Kutubxona va yosh kitobxon" E.Yo'ldoshev Toshkent "O'zbekiston" 2003



4. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya" R. Mavlyanova, N. Rahmankulova 22-bet.

O'QUVCHILARDA KREATIV SALOHİYATNI SHAKLLANTIRISHNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ibrohimova N.I Namangan davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi BT-EU-21 guruh talabasi
Nuraliyeva K. I NamDU "Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda bola psixologiyasidan kelib chiqqan holda darslarni qiziqarli o'tish uchun yordam beradigan metodlar keltirib o'tilganligi. Har bir o'quvchi o'quv dargohiga kelganda nimanidir o'rganib ketishi, darslarni o'quvchi uchun qiziqarli va sifatli o'tish esa pedagogning asosiy vazifasi ekanligi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish eng murakkab ishlardan biri ekanligi. Bu esa o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni talab etilishi haqida so'z boradi.*

Tayanch so'zlar: pedagogika, kreativlik, didaktika, shaxs, qobiliyat, mahorat, o'quvchi, o'qituvchi, samaradorlik.

ИНДИВИДУАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ СИЛЫ У СТУДЕНТОВ

Ибрагимова Н. И НамГУ учится на специальности «Начальное образование».
Нуралиева К. И НамГУ в начальном образовании. Преподавание социальных наук преподаватель кафедры методологии

***Аннотация:** В этой статье описаны методы, которые помогают сделать уроки начального образования, основанные на детской психологии, качественно и весело. Каждый ученик должен узнать что-то полезное, когда он придет в школу. Основная задача преподавателя – сделать темы понятными, простыми и качественными. Одна из самых сложных задач – обучить детей, особенно тех, кто только начал процесс обучения в начальной школе. Это требует от учителя высоких педагогических навыков.*

Ключевые слова: педагогика, творчество, дидактика, личность, умение, учитель, ученик, эффективность.

INDIVIDUAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FORMATION OF CREATIVE POWER IN STUDENTS

Ibrohimova N.I NamSU is a student of "Primary Education"
Nuraliyevava K.I NamSU In primary education teaching social sciences teacher of the department of methodology

***Annotation:** This article outlines methods that can help to make lessons fun in primary education based on child psychology. Every student should learn something that is useful when they come to school. The main task of the educator is to make the topics interesting, understandable and qualitative for the student. One of the most difficult tasks is to educate*



108	Устоз-шогирд маданиятини шакллантиришда Айкидо шарқ яккакурашининг аҳамияти Камбаров Н.С., Рахматова Х.А.	525
109	MaKtabgacha yoshdagi bolalar hayotida jismoniy tarbiya vositalarining oʻrni. Asqarova D.Q., Asqarov F.T.	530
110	Технология дарсларида ўқувчиларни техник фикрлаш қобилиятини шакллантириш ва ривожлантириш зарурати Мухитдинова Ж.Р.	535
111	Kitobga muhabbat uygʻotishda oilaning oʻrni Xodjiyeva F.T.	539
112	Bolalar bogʻchasida chet tilni oʻrgatish metodikasi Nishanova T.A., Shermatjonova M.N.	542
113	Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida yuqori sinf oʻquvchilariga chet tili grammatikasi oʻqitishning zamonaviy usul va vositalari Mamatova D., Shamsiddinova M.	545
114	Boshlangʻich sinf oʻquvchilarini kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning samarali yoʻllari Joʻrayeva T.U.	548
115	Anʼanaviy va noʻanaviy dars mashgʻulotlari, uning afzallik va kamchiliklari Ibroximov M.A., Rustamova Z.F.	553
116	Boshlangʻich sinf oʻquvchilari oʻrtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish. Nuriddinova D.I., Zaylobiddinova M. A.,	557
117	Kitobxonlikka qiziqishni tarbiyalash orqali oʻquvchilarda shaxslararo madaniyatni shakllantirish Zaylobiddinova M. A., Nuriddinova D.I.	562
118	Oʻquvchilarda kreativ salohiyatni shakllantirishning individual-psixologik xususiyatlari Ibrohimova N.I., Nuraliyeva K.I.	567
119	Fan-texnika taraqqiyoti davrida yoshlar tarbiyasining dolzarb muammolari. Mirqosimova M.	572
120	Халқ ўйинларининг таълим – тарбия жараёнидаги педагогик омиллари Эгамбердиева Т.А., Йўлдошев С.В.	575
121	Oliy taʼlim muassasalari talabalarini sogʻlom turmushga tayyorlashda jismoniy tarbiya va sportning oʻrni Mahmudov N.N.	580
122	The role of motivation in teaching English to young learners Akbarova R., Baxriddinov A.	584
123	Chet taʼlimida shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvdan foydalanishning oʻziga xos xususiyatlari Kukiboyeva M.	589
124	Ingliz tilini oʻrganish jarayonida tanqidiy fikrlash madaniyatini shakllantirish omillari Tuychiev A.T.	592



125	Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda , multimedia darsliklarining ta'lim tizimida tutgan o'rni. Valiyeva Sh.A., Gapporov B.	597
126	Талабаларда жисмоний тарбияга қадриятли муносабатларини ривожлантиришга хос малака ва кўникмаларни юксак даражада самарали йўлга қўйилиши Назаров А.Т.	599
127	Картографическая грамотность - признак географической культуры Абдурахмонов Б.М.	603
128	Бўлажак тарбиячиларда касбий компетентликни ривожлантириш омиллари Абдусаматова Н.Ж.	609
129	Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг касбий компетенцияларини ривожлантириш йўллари Аъзамова Б.М.	613
130	Nanotexnologiyalar bo'yicha ta'lim olishga talab Borisova V.A.	616
131	Методика преподавания категории рода существительного в начальных классах. Дедаханов А.М.	623
132	Китоб –маърифат чироғи Муминова Д. А.	626
133	Davlat tiliga e'tibor va uning oliy ta'lim texnika yo'nalishlarida o'qitilishi Shermatova D.Y.	633
134	“Нутқ нуқсонли болалар диққатининг хусусиятлари” Жўраев М.М.	637
135	Мактабгача таълим ташкилотлари фаолиятини мақсадли бошқаришга замонавий ёндашувлар Маҳмудова З.Х.	642
136	Talaba sportchilarning portlovchi kuchini rivojlantirish usullari Qambarov S.S.	647
137	Die bedeutung und das gebrauch der it beim sprachlernen Mamashajeva M.	651
138	Шахс ижтимоийлашуви жараёнида жисмоний маданият ва спортнинг ўрнига доир Мадаминов Б.Ш.	655
139	Тафаккур жараёни, ақлий ҳаракат усуллари ва танқидий фикрлашга ўргатишнинг ўзаро алоқадорлиги Тажибоева Г.М.	659
140	Талабаларда таълим менежменти бўйича билим ва кўникмаларни шакллантиришга замонавий ёндашув Қорабоева З.Т.	664
141	Олий таълим талабаларнинг амалиётини ташкил қилиш мазмуни. Кодирова З.	669



142	К вопросу о роли духовности в формировании патриотизма у молодежи Джуманазарова З.	673
143	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan foydalanish samaradorligi Ismoilov T., Sultanov B., Artikova N.	677
144	Нотўлиқ оилаларда болаларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик механизмлари Асранбаева М.Х.	681
145	Ўқувчиларда ўзбек менталитетига хос маънавий-ахлоқий хусусиятларни шакллантиришда бадиий асарларнинг ахамияти Усмонова М.Б.	688
146	Во'лажак о'қитувчиларда media kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari Qambarov M.M.	693
147	Эффективность применения творческих заданий в развитии речевой деятельности Мирзахалова Г.У.	698
148	Ўсмирлик ёшидаги болаларнинг морфофункционал хусусиятлари Иминжанов Р.А., Холматов Н.У.	702
149	Ҳарбий ватанпарварлик тарбиясига қўйиладиган замонавий ижтимоий-педагогик талабалар Мамажонов Р.А.	707
150	Педагог кадрлар малакасини ошириш жараёнида тингловчиларда касбий компетентликни оширишнинг педагогик шарт-шароитлари Неъматова С.И.	713
151	"Inklyuziv ta'lim muhitida pedagogik faoliyatni tashkil etishning hozirgi kun muammolari" Xusanov A.A.	720
152	Тиббий педагогикада модел ва векторли моделлаштириш Кадирова М.Р.	724
153	1-синф ўқувчиларида мантиқий масалалар ёрдамида математик тафаккурни шакллантириш Каримова К.Р.	733
154	Мактабгача таълим ёшидаги боланинг тарбиялашда оила, маҳалла ва нодавлат нотажорат ташкилотлари ҳамкорлиги. Абдуллаева М.А., Абдуллаева Н.С.	740
155	Бошланғич синф ўқувчиларида креатив фикрлаш кўникмаларини ривожлантириш технологиялари Тўраева Н.З.	744
156	Олий таълимда Э.Воҳидов ижодининг мултимедияли таъминотини яратишда ахборот дастурий воситалардан фойдаланиш Хўжамбердиева Ш.К.	748
157	Публицистика писателей как источник обогащения педагогического процесса Абдулвоҳидов Э.	753



158	О‘смир yoshdagi volebolchilarni musobaqa oldi ruxiy tayyorgarlik metodikasi. Egamberdiev I.E.	758
159	“Бобурнома” даги шоирлар образининг структурал таҳлили Қозақова С.	762
160	Умумтаълим мактабларида вужудга келадиган педагогик низоларнинг ўзига хос хусусиятлари Саидов А.Н.	766
161	Antroposentrik yondashuv asosida o‘qitishda o‘qituvchi faoliyatini takomillashtirish Sobirova M.Y.	769
162	Социокультурный и краеведческий принципы обучения русскому языку Мамадалиева С.Ш.	773
163	Sog‘lom turmush tarziga amal qilishda tashqi muhit omillarining sportchi organizmiga ta’siri Madaminov B.Sh., Atabayev B., Abduboyeva A.	777
164	Yugirish jismoniy tayyorgarlik va sog‘lom turmush tarzining asosiy vositasi sifatida Usmanov B.X.	783
165	Таълим- тарбиянинг долзарб муаммолари Пайзибаева М.	787
166	Таълим сифатини таъминлашда инновацион менежментнинг ўрни ва ахамияти Шодманов Қ.О., Хатамова Р.З.	789
167	Теоретические основы педагогического моделирования сущность и эффективность Рахимкулов К.Д.	794
168	Бошланғич таълим ва спорт тарбиявий иш йўналишининг комплекс ўқув режасида интегратив ўқитиш методининг вазифалари Тошхонов А.Т.	800
169	Oliy o‘quv yurtlari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish pedagogik muammo sifatida Xatamov Z.N. Boltaboyev X.H., ..	808
170	Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida sog‘lom turmush tarsi fenomeni, jismoniy etuklik, jismoniy kamolot, jismoniy barkamollik tushunchalari. Boltaboyev X.H.	812
171	Sportchilardagi jarohatlarning umumiy tavsifi X.H. Boltaboyev.	816
172	Место теоретико-литературных понятий в учебнике по русскому языку для 7 класса узбекских школ Хайитов М.М.	820
173	Болага иккинчи тилни ўргатишнинг психологик хусусиятлари Эргашева Х.Ю.	826
174	“Иқтисодий ва ижтимоий география” фанини ўқитишнинг педагогик шарт-шароитлари Қўлдашева М.Н.	832



175	“Тayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini” rivojlantirishning pedagogik-psixologik mohiyati va tahlili.	
	ҲАКИМОВ А.О.	837
176	Ҳамкорлик педагогикасининг мазмуни, моҳияти, тамойиллари, муҳим ва таркибий элементлари	
	Рахматова Х.А.	844
177	Мактабгача yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda interfaol ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati	
	Хомидова Д.А.	851